

LOF JANRINING SEMIOTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xolbutayev G'ayratbek Oybek o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

ORCID ID 0000-0001-5925-8071

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janrlaridan biri bo'lgan loflarning semiotik, pragmatik hamda giperreal tabiati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda loflarning milliy koloritni ifodalashdagi o'rni, giperbola va absurdning badiiy-estetik funksiyasi, dialogik raqobatning kommunikativ mexanizmlari hamda madaniy kodlarning semiotik mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada J.Bodriyarning simulyakr va giperreallik nazariyasi, Yu.M.Lotmanning semiosfera konsepsiyasi hamda Umberto Eko semiotik qarashlari asosida lof janrining ko'p qatlamli ma'no tizimi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida lof janri oddiy yumor shakli emas, balki reallikni qayta kodlovchi va yangi giperreal badiiy makon yaratuvchi murakkab semiotik tizim ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: folklor, lof, semiotika, pragmatika, giperreallik, giperbola

Аннотация. В данной статье научно анализируются семиотическая, прагматическая и гиперреальная природа узбекских народных лоф как одного из своеобразных жанров устного народного творчества. В исследовании раскрываются роль лоф в выражении национального колорита, художественно-эстетические функции гиперболы и абсурда, коммуникативные механизмы диалогической конкуренции, а также семиотическая сущность культурных кодов. Кроме того, жанр лоф рассматривается на основе теорий симулякра и гиперреальности Ж.Бодриера, концепции семиосферы Ю.М.Лотмана и семиотических взглядов Умберто Эко. В результате исследования обосновывается, что лоф представляет собой не просто форму юмора, а сложную семиотическую систему, перекодирующую реальность и создающую новое гиперреальное художественное пространство.

Ключевые слова: фольклор, лоф, семиотика, прагматика, гиперреальность, гипербола

Abstract. This article provides a scientific analysis of the semiotic, pragmatic, and hyperreal nature of Uzbek folk "lof" narratives as a distinctive genre of oral folklore. The study examines the role of lofs in expressing national identity and cultural coloration, the artistic and aesthetic functions of hyperbole and absurdity, the communicative mechanisms of dialogic competition, and the semiotic essence of cultural codes. Furthermore, the article interprets the genre through Jean Baudrillard's theory of simulacra and hyperreality, Yuri Lotman's concept of the semiosphere, and Umberto Eco's semiotic approaches. The research concludes that the lof genre should be regarded not merely as a humorous folkloric form, but as a complex semiotic system that recodes reality and constructs a new hyperreal artistic space.

Keywords: folklore, lof, semiotics, pragmatics, hyperreality, hyperbole

Kirish (Introduction). O'zbek xalq og'zaki ijodida lof janri alohida badiiy-estetik hodisa sifatida shakllangan bo'lib, u xalqning milliy mentaliteti, yumor madaniyati va kommunikativ tafakkurini ifodalaydi. Mazkur janrning asosiy xususiyati mubolag'a, absurd va dialogik raqobat asosida qurilganidadir. Maqolada loflarning semiotik, pragmatik hamda giperreal tabiati tahlil qilinib, ularning oddiy kulgi vositasi emas, balki murakkab ma'no ishlab chiqaruvchi tizim

ekanligi asoslanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi folklorshunoslik va lingvosemiotika doirasida lof janri yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Ayniqsa, loflarning semiotik kodlar, implikatura, giperbola va giperreallik bilan bog'liq jihatlarini ilmiy tahlil qilish zamonaviy filologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan loflar milliy mentalitet, dunyoqarash va hayotiy tajribaning yumor vositasidagi ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular, ayniqsa, mubolag'a (giperbola), kutilmagan raqobat va "kim o'tkirroq gap aytadi?" tamoyili asosiga qurilib, nutqiy musobaqa shaklida namoyon bo'ladi. Loflarda milliy kolorit nafaqat syujet darajasida, balki obrazlar tizimi, madaniy realiyalar va til ifodalari orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review). Maqolada lof janrini tahlil qilishda semiotika va postmodern nazariyalar muhim metodologik asos sifatida qo'llangan. Xususan, J.Bodriyyarning "simulyakr" va "giperreallik" konsepsiyasi loflarda reallikning buzilishi va yangi "ikkinchi darajali reallik" yaratilishini tushuntirishga xizmat qiladi.

Yu.M.Lotmanning "semiosfera" nazariyasi asosida loflar normal kommunikativ kodlarni buzuvchi va yangi semiotik maydon hosil qiluvchi matn sifatida talqin etiladi.

Umberto Ekoning "ochiq matn" nazariyasi esa loflarda ma'no emas, balki "giperbolik effekt"ning ustuvorligini izohlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Y.S.Stepanovning semiotik gradatsiya haqidagi qarashlari dialogik loflarda ma'noni bosqichma-bosqich kuchaytirish mexanizmini tahlil qilishga imkon beradi.

Shu bilan birga, maqolada o'zbek folklorshunosligidagi lof janri bo'yicha mavjud qarashlar kengaytirilib, uni faqat yumoristik janr emas, balki semiotik va pragmatik model sifatida talqin qilish taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda kompleks filologik yondashuvdan foydalanilgan. Jumladan:

- ☐ semiotik tahlil usuli;
- ☐ pragmatik tahlil;
- ☐ lingvokulturologik yondashuv;
- ☐ diskursiv tahlil;
- ☐ qiyosiy-semiotik metodlar qo'llangan.


Tahlil materiali sifatida o'zbek xalq loflari va ular tarkibidagi dialogik birliklar olingan. Tadqiqot davomida loflarda uchraydigan "xo'roz", "to'y", "qozon", "osh" kabi milliy madaniy kodlarning funksional-semantik xususiyatlari o'rganilgan.

Shuningdek, tadqiqotda loflarning giperbola orqali ma'no hosil qilishi, belgi va referent munosabatining buzilishi, implikatura va absurd mexanizmlarini yuzaga chiqarishi, dialogik raqobat orqali semiotik gradatsiya yaratishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Avvalo, lof janrining eng muhim milliy belgilaridan biri – bu qishloq va an'anaviy hayotga xos obrazlar orqali fikr yuritishdir. Lof janrini semiotik nuqtayi nazardan – ya'ni belgi, ma'no, kod va madaniy kontekst tizimi sifatida talqin qilishga ham e'tibor qaratish lozim. O'zbek xalq og'zaki ijodi tizimida lof janri alohida semiotik model sifatida qaralishi mumkin. Chunki u oddiy hajviy hikoya emas, balki ma'noni oshirib berish, belgilarni buzish, reallik va tasavvur o'rtasidagi chegarani yo'qotish orqali yangi komik semiozis yaratadi.

Semiotika nuqtayi nazaridan lof – bu "rost" va "yolg'on" o'rtasidagi ziddiyat emas, balki "ishonarli belgilarni ataylab buzib ko'rsatish orqali kulgi hosil qilish tizimi" sifatida e'tiborlidir. Bu yerda asosiy vazifa – real obyektни tasvirlash emas, balki uning belgilarini shunday giperbolalashtirishki, natijada yangi ma'no qatlami paydo bo'ladi.

Lofda belgi va referent munosabatining buzilishi ham komik holat yaratishning o'ziga xos usuli sifatida maydonga keladi. Semiotikada har bir belgi uch qismdan (1-rasm) iborat: belgilovchi shakl, ma'no va referent (real obyekt).



1-rasm. Real obyekt

Lof janrida ushbu uchlik tizim doimiy ravishda buziladi yoki kuchli giperbolaga uchraydi.

“Bir xo‘rozim bor edi. Shunday semirdiki, qo‘yday kelardi...”. Bu yerda “xo‘roz” – real referent. Ammo u ikki marta semiotik buzilishga uchraydi. U avval “qo‘y” belgisi bilan almashtiriladi, keyin yana-da yuqori bosqichda “tuya” belgisiga ko‘tariladi.

Demak, belgi tizimi $xo'roz \rightarrow qo'y \rightarrow tuya$ ko‘rinishida transformatsiyalanadi.

Bu semiotik degradatsiya emas, balki semiotik gipereskalatsiya (haddan tashqari yuqorilash) dir. Ya'ni belgi reallikdan uzilib, “kulgi generatori”ga aylanadi.

Loflarda giperbola – semiotik kodni buzish mexanizmi hisoblanadi. Shuningdek, loflarda giperbola (oshirib tasvirlash) asosiy semiotik instrument vazifasini ham bajaradi. Bu yerda giperbola faqat badiiy usul emas, balki ma'no ishlab chiqarish mexanizmi hamdir.

“Toyga kelgan xo‘rozni ko‘rsangiz, naqd tuyadek kelardi...”. Bu yerda uchta semiotik bosqich bor:

1. vizual belgi: xo‘roz
2. analogik belgi: qo‘y
3. metaforik belgi: tuya

Bu tizim “ikon $\rightarrow$ simvol $\rightarrow$ gipersimvol” ko‘rinishida rivojlanadi. Semiotik jihatdan bu yerda reallik yo‘qoladi, uning o‘rniga “tasavvuriy kattalashtirilgan belgi” paydo bo‘ladi.

Ma'lumki, komik janrlar: askiya, latifa va loflar ko‘pincha dialog asosiga quriladi. Bu janrdagi og‘zaki asarlar matnida dialog musobaqaviy semiotik kod vazifasida ham keladi. Shu nuqtayi nazardan yondashganimizda lof janridagi og‘zaki matnlarda dialog muhim semiotik maydon hisoblanadi. Unda har bir javob oldingi belgini yo‘qqa chiqarish va yangi belgini yaratish aktidir. Ko‘rinadiki, loflarda dialog bir necha semantik vazifada kelmoqda.

Lofchi: “Xo‘roz qo‘yday kelardi”, ikkinchi lofchi: “Mening xo‘rozim tuyadek kelardi” ifodasida kommunikatsiya emas, balki semiotik raqobat ketmoqda. Shuningdek, har bir replika avvalgi belgini inkor qiladi, uni yangi giperbola bilan almashtiradi, shu tariqa ma'noni kuchaytirib boradi. Bu jarayonni Y.S.Stepanov konsepsiyasiga asosan “semiotik gradatsiya” deb atash mumkin.

Loflarni semiotik tahlil qilishda madaniy kodlar eng muhim qatlam hisoblanadi. Chunki har bir belgi o‘zbek madaniyatida alohida ma'no qiymatiga ega. Masalan:

1. “To‘y” kodi. “To‘yiga olib borilgan xo‘roz”. To‘y – bu ijtimoiy birlik belgisi, resurslar demonstratsiyasi, madaniy ierarxiya maydoni. Semiotik jihatdan to‘y – “ma'no konsentratori” vazifasini bajaradi.

2. “Qozon va osh” kodi. “O‘n olti quloqli qozondagi osh”. Bu yerda “qozon” farovonlik, jamoaviy mehnat timsoli, mehmondo‘stlik kodi. “O‘n olti quloq” esa real emas, balki semiotik ortiqcha kod sanaladi.

3. “Xo‘roz” kodi. Xo‘roz o‘zbek madaniyatida uy xo‘jaligi, boylik timsoli (xalq qarashlarida xo‘roz ham yetti xazinaning biri sifatida tan olinadi), erkaklik ramzi, sergaklik belgisidir. Lofda esa u gigantlashgan obraz, komik deformatsiyalangan belgi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Loflarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘no emas, balki implikatura (yashirin ma‘no) ustun turadi. Masalan, “So‘yib qozonga bosishganda, to‘yda gilardan ham ortib qoldi”. Bu ifodada implikatura – boylik va farovonlikni oshirib ko‘rsatish, ijtimoiy maqomni kulgi orqali namoyish qilish vositasida ifodalangan. Ya‘ni, lof tinglovchiga “haqiqat”ni emas, “ko‘rinib turgan ma‘no ortidagi kulgi kodini” yetkazadi.

Lof janrida absurd – muhim semiotik prinsipdir. Masalan, “Qozon shunchalik kattaki, o‘n olti quloqli”. Bu o‘rinda reallik buzilgan, belgi fizik qonunlardan uzilgan, yangi “absurd semiotik dunyo” yaratilgan. Bu dunyoda mantiq emas, balki komik tasavvur faollashadi.

Loflarda badiiy voqelik o‘ziga xos binar oppozitsiyalar asosida quriladi. Tasvirda oddiy predmet o‘ta dahshatli darajada kattalashadi. Aynan shu predmetni o‘ta mubolag‘alashtirish lof ijrochisining mahorati bo‘lishi bilan birga tinglovchining badiiy-estetik tasavvurlarini boyitadi, uning badiiy-estetik ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Loflarda binar oppozitsiya

Hayotiy reallik	Lof realligi
xo‘roz	tuyadek xo‘roz
oddiy qozon	16 quloqli qozon
real to‘y	giperto‘y
me‘yor	ortiqcha mubolag‘a

Bu oppozitsiyalar lofning semiotik strukturasi tashkil qiladi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, lof – semiotik “oyna” emas, balki “buzilgan oyna”dir. Lof reallikni aks ettirmaydi, balki uni qayta kodlaydi. Shu ma‘noda u refleksiya emas, refraksiya (buzib ko‘rsatish) jarayonidir. Lofda belgi reallikni ko‘rsatmaydi, balki uni “kulgiga aylantiradi”.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, o‘zbek xalq loflari semiotik jihatdan murakkab belgilar tizimini tashkil qiladi. Ularda:

- ☐ belgi va referent o‘rtasidagi munosabat buziladi;
- ☐ giperbola asosiy semiotik mexanizmga aylanadi;
- ☐ madaniy kodlar (to‘y, xo‘roz, qozon) asosiy rol o‘ynaydi;
- ☐ dialog orqali semiotik raqobat yuzaga keladi;
- ☐ implikatura orqali yashirin ma‘no yetkaziladi.

Shuning uchun lof janrini oddiy yumor emas, balki “semiotik giperreal komik tizim” sifatida baholash mumkin. Uning asosiy vazifasi – reallikni qayta tasvirlash emas, balki uning belgilarini buzish orqali yangi kulgi dunyosini yaratishdir. Lof badiiyatida o‘ziga xos tafakkur evrilishini kuzatamiz.

O‘zbek folklorida mavjud loflar o‘z tabiatiga ko‘ra real voqelikni emas, balki uning badiiy-g‘oyaviy jihatdan “cheksiz darajada kuchaytirilgan” modelini yaratadi. Ularda voqelik shunday darajada oshirib tasvirlanadiki, natijada haqiqat bilan xayol o‘rtasidagi chegara yo‘qolib, “ikkinchi darajali reallik” – ya‘ni giperreallik yuzaga keladi. Bu hodisani J.Bodriyyarning simulyakr va simulyatsiya konsepsiyasi orqali izohlash mumkin. Uning qayd etishicha, simulyakr – reallikka o‘xshaydigan, ammo undan mustaqil yangi “haqiqat” darajasiga chiqqan belgilar tizimidir.

Loflarda (masalan, “tuyadek keladigan xo‘roz”, “o‘n olti quloqli qozon”, “oyda xo‘roz urishtirish”) reallik emas, balki uning cheksiz ortiqcha simulyatsiyasi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Yuqoridagi misolda lof hayot voqeasi yoki voqeaning “imkoni” ham emas, balki “ifodasi”ni ham yo‘qqa chiqarib, mutlaq mubolag‘aga aylanadi. Shu jihatdan loflar Bodriyyar ta’biri bilan aytganda, “reallikni yo‘qotgan giperreallik”ni yaratadi.

Giperreallikning asosiy belgisi – belgining referentdan uzilib ketishi, ya’ni so‘zning real obyekt bilan bog‘lanishdan ko‘ra o‘z-o‘zini kuchaytirishga o‘tishi hisoblanadi. Loflarda bu jarayon quyidagicha amalga oshadi:

“Bir xo‘roz tuyadek kelar edi” → real obyekt (xo‘roz) saqlanadi, ammo uning o‘lchami mutlaqo buziladi; → referent emas, “o‘lcham haqidagi tasavvur” markazga chiqadi.

“O‘n olti quloqli qozon” → qozon real predmet sifatida qoladi, → lekin funksional emas, “fantazmatik funksiya” ustunligi maydonga keladi.

“Oyda xo‘roz urishtirish” → geografik va biologik reallik butunlay buziladi, belgilar tizimi mutlaqo mustaqil simulyatsiyaga aylanadi. Bu holat J. Bodriyyar ta’riflagan “simulyakrning uchinchi bosqichi”ga yaqin bo‘lib, unda belgilar reallikni emas, balki faqat boshqa belgilarni ko‘rsatadi. Y.Lotmanning semiotik madaniyat konsepsiyasiga ko‘ra, har bir matn – bu belgilar tizimi bo‘lib, u “semiosfera” ichida ma’no ishlab chiqaradi. Loflar esa semiosferaning “markazdan chetga chiqqan zonasi”da joylashgan bo‘lib, ular normal kommunikatsiya kodlarini buzadi. Loflarda kodlar buziladi (xo‘roz → tuya masshtabiga o‘tadi), semantik maydon kengayadi, ma’no markazi “haqiqat”dan “effekt”ga ko‘chadi. Masalan, ikkita lofchi o‘rtasidagi dialog Yu.Lotman ta’biri bilan aytganda “ikki kod tizimining musobaqasi” hisoblanadi. Birinchi lofchi reallikni buzadi, ikkinchisi esa uni yanada yuqori darajada buzib, yangi “ikkinchi darajali matn” yaratadi. Bu semiotik raqobat orqali giperreallikning o‘sib borishi hisoblanadi.

Umberto Eko semiotikasida matn doim ochiq bo‘lib, interpretatsiya imkoniyatlari cheklanmagan. Loflar bu nazariyaga to‘liq mos tushadi, ammo bir jihatdan ulardan farqlanadi, ya’ni lofda interpretatsiya emas, “mubolag‘a generatsiyasi” cheksiz. U. Eko nuqtayi nazaridan yondashsak, lof – “ochiq matn”, ammo u ma’no emas, “effekt” ishlab chiqaradi, har bir javob yangi giperbola yaratadi. Masalan: “xo‘roz tuyadek edi”, “mening xo‘rozim oyga chiqib ketgan”, “oydagilar bedana urishtirganini xo‘rozga mengzalishi” kabi ifodalarda yangi giperbola yaratiladi. Bunday ketma-ketlik U. Eko ta’riflagan “semiotik o‘sish” emas, balki “giperbolik ekspansiya”dir.

Loflarning pragmatik vazifasi haqiqatni yetkazish emas, balki tinglovchida kulish, hayrat va “ishonmaslikni qabul qilish” reaksiyasini uyg‘otishdir. Bu jihatda loflar pragmatik kelishuvni buzadi. Ya’ni, tinglovchi “ishonaman” deb emas, “ishonmasam ham qabul qilaman” pozitsiyasida turadi. Bu holat giperreal kommunikatsiyaning asosiy belgisi hisoblanadi. Ya’ni, tinglovchiga yetkazilayotgan xabar haqiqat sifatida emas, balki ta’sir sifatida qabul qilinadi.

Loflarda giperreallik quyidagi mexanizmlar orqali yaratiladi:

1. Miqdoriy mubolag‘a: Xo‘roz → tuya, oddiy voqea → kosmik hodisa.
2. Makon buzilishi: yer → oy, mahalla → kosmos.
3. Sabab-oqibat inversiyasi: real sabab → absurd natija.
4. Mantiqning yo‘qolishi yoki mantiqsizlik: ma’no o‘rniga paradoks faollashadi.

Bu mexanizmlar birlashganda “reallik modeli” emas, balki “reallik simulyatsiyasi” yuzaga keladi. Lofchi obrazi esa simulyakr yaratuvchi subyekt vazifasini bajaradi. Lofchi – bu oddiy gapiruvchi emas, balki reallikni qayta ishlovchi “semiotik muhandis”dir. U voqelikni buzadi, uni qayta konstruksiya qiladi va yangi “haqiqat versiyasi”ni yaratadi.

Ashaddiy lofchi obrazi esa giperreallikni cheksiz darajaga yetkazuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Uning gapi reallikdan uzilgani uchun emas, balki reallik o‘rnini bosadigan yangi tizim yaratgani uchun ta’sirli bo‘ladi.

O‘zbek xalq loflari – bu oddiy yumor emas, balki reallikning semiotik qayta kodlanishi

natijasida yuzaga kelgan giperreal badiiy tizimdir. Ularda J.Bodriyyar ta'biri bilan aytganda, simulyakrlar reallikni almashtiradi. Yu.M.Lotman nazariyasiga ko'ra, semiosferaning chekka zonalarida yangi kodlar yaratiladi, U. Eko nuqtayi nazaridan esa ochiq, ammo giperbolik matnlar shakllanadi. Shu tariqa lof janri reallikni aks ettirmaydi, balki uning o'rniga o'tadigan yangi, mubolag'aviy va semiotik jihatdan mustaqil giperreal dunyoni yaratadi.

O'zbek xalq loflari tashqi ko'rinishda oddiy dialog va hazilga asoslangan og'zaki matn bo'lib tuyulsa-da, ularning ichki tuzilishida murakkab ko'p qatlamli semiotik kodlar tizimi mavjud. Bu kodlar bir vaqtning o'zida til, madaniyat, ijtimoiy iyerarxiya, yumor mexanizmi va giperbolik tasavvur qatlamlarini birlashtiradi. Yu.M.Lotman ta'kidlaganidek, madaniy matn – bu bir nechta semiotik tizimlar kesishgan “semiosfera ichidagi ko'p kodli maydon” hisoblanadi. Loflar aynan shu ko'p kodlilikning eng yorqin og'zaki namunasi. Loflarda birinchi qatlam – lingvistik kod, ya'ni grammatik va leksik ifoda tizimidir. Ammo bu kod oddiy xabar uzatish uchun emas, balki haqiqatni buzish va uni giperbolik shaklga keltirish uchun xizmat qiladi.

Masalan, “Bir xo'roz tuyadek edi”, “O'n olti quloqli qozon”, “Qovurg'asidan ko'prik qurildi” kabi leksik birliklar real ma'nodan uziladi. “Xo'roz”, “qozon”, “qovurg'a” kabi oddiy so'zlar o'z semantik chegarasidan chiqib, yangi, fantazmatik ma'no qatlamiga o'tadi. Bu kodning asosiy xususiyati shundaki, lof kontekstida real denotat yo'qoladi, giperbola esa semantik markazga aylanadi.

Ikkinchi qatlam – madaniy kod. Loflardagi obrazlar (xo'roz, to'y, qozon, mehmon) o'zbek turmush tarziga xos madaniy modellardan kelib chiqadi. Masalan, “Toshmatvoyning to'yiga sovg'a qilingan xo'roz”, “Qozondagi osh ustiga bosilganda hammasidan ortib qoldi”. Bu o'rinda “to'y” – ijtimoiy markaziy marosim, “osh” – jamoaviy mehmondo'stlik ramzi, “xo'roz” – uy xo'jaligi belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, madaniy kod orqali lof milliy hayot modelini tan oladi, biroq uni mubolag'a orqali qayta yaratadi.

Uchinchi qatlam – ijtimoiy kod bo'lib, u loflardagi muloqot shakli va status munosabatlarini belgilaydi. Masalan, “Xonaki lofchi – ashaddiy lofchiga dedi”, “Ikki g'irt lofchi uchrashib qoldi”. Bu o'rinda “xonaki”, “ashaddiy”, “g'irt” kabi sifatlar ijtimoiy kod vazifasini bajarib, suhbatdoshlar munosabatining shakli va statusini ifodalaydi. Shuningdek, ijtimoiy kod personajlarni “hayotiy emas, tipologik” darajaga olib chiqadi va ularni yumor mexanizmining elementiga aylantiradi.

To'rtinchi qatlam – mantiqiy kodning buzilishi. Loflarning asosiy estetik effekti aynan shu kodning inversiyasi orqali yuzaga keladi. Masalan, “Oyda xo'roz urishtirish”, “Bedanalarni samovarda urishtirish uchun oyga chiqish” kabi ifodalarda sabab-oqibat aloqasi yo'qoladi, real mantiq o'rnini absurd mantiq egallaydi. Yu.Lotman nuqtayi nazaridan bu holat “semiotik portlash”ga teng: matn o'z ichki qoidalarini buzib, yangi qoidalar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq loflari ko'p qatlamli kodlar tizimiga asoslangan murakkab semiotik strukturadir. Ularda har bir kod mustaqil faoliyat ko'rsatmaydi, balki boshqa kodlar bilan o'zaro kesishib, giperbolik ma'no maydonini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, lof – shunchaki oddiy og'zaki yumor emas, balki ko'p kodli madaniy simulyatsiya bo'lib, u reallik, til va fantaziya o'rtasidagi chegaralarni yo'qqa chiqaradi. Aynan shu ko'p qatlamlilik lof janrini nafaqat folklor namunasi, balki madaniy semiotikaning o'ziga xos laboratoriyasi darajasiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бодрияр Ж. Симулякры и симуляции. [пер. с фр. А. Качалова]. – М.: Издательский дом «ПОСТУМ», 2015. – С.12. (240 с.)
2. Бодрийяр Ж. Пароли. От фрагмента к фрагменту. – Екатеринбург, 2006. – С. 56.
3. Степанов Ю.С. Семиотика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.:

СЭ, 1990. — С. 440—442.

4. Эко У. Тайнственное пламя царицы Лоаны / пер. Е. Костюкович. СПб.: Симпозиум, 2008. 596 с.

5. Имомов Б., Жўраев Қ., Ҳакимова Ҳ. Ўзбек драматургияси тарихи. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995.– Б.13.

6. Қодиров М. Масхарабоз ва қизиқчилар санъати. – Тошкент, Фан. 1971.– Б.42-43.

7. Лук А. О памяти, эмоциях, чувствах; юморе, остроумии, творчестве; об уме и глупости; о любви. – Киев - Москва - Франкфурт-на-Майне, 2017.

8. Мухаммадиев Р. (тўпловчи ва нашрга тайёрловчи) Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Аския. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1970. – Б.9.

9. Пропп В. Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва, 1976. – С.174.

10. Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент, Фан, 1968. – Б.430 б.

11. Чурмаева Н.В. Почему остроумный? - «Русская речь», 1969, №1, – С.86.

12. Эшонкул Ж. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент, Фан. 2019. – Б. 139.